



BYUDJET TASHKILOTLARDA HISOB SIYOSATINING YURITILISHI

Abdullojon Davronov¹

¹ Toshkent Moliya instituti 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5813683>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-Dekabr 2021
Ma'ullandi: 25-Dekabr 2021
Chop etildi: 30-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Byudjet hisobi, hisob siyosati, buxgalteriya, moliya, tamoyil, soliq, byudjet, korxonalar, tashkilot, qonun, bozor talabi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada byudjet tashkilotlarida hisob siyosatini shakllantirish bosqichi va jarayonda yuz beradigan zaruriy ko'rsatmalar haqida fikr-mulohazalar bayon etiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng bozor talabalariga javob bera oladigan milliy byudjet tizimi shakllana boshladi. Avvalambor, byudjet tizimining huquqiy asosi bo'lgan konstitutsiya qabul qilindi, byudjet siyosatining institutsional asoslari bo'lgan davlat hokimiyati idoralarining huquqiy maqomi, moliya-byudjet siyosati sohasidagi vakolatlari va vazifalari belgilab berildi. Konstitutsiyada mustahkamlangan mahalliy hokimiyatlarining mustaqilligi, moliya sohasida qat'iy o'zgartirishlarni va davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimini bosqichma-bosqich joriy etish yo'nalishlarini tadqiq etishni talab qildi.

Yuqori tashkilot moliya organiga harajatlar guruhlarini bo'yicha xarajatlar yig'ma smetasini, harajatlarning to'liq yoyilmasini va xarajatlar smetasiga hisob-kitoblarni ilova qilgan holda, shuningdek, qaramog'idagi barcha tashkilotlar bo'yicha esa ro'yxatdan o'tkazish uchun hamma talablarga javob berishi va belgilangan muddatda amalga oshirilishi kerak va zaruriy holat etib belgilandi.

Avvalambor, byudjet tizimi deganda - budjetlarini ijro etishda hisobga olinadigan, pulda ifodalangan aktivlar va majburiyatlarining, shuningdek, mazkur aktivlar va majburiyatlarni o'zgartiruvchi operatsiyalarning holati to'g'risidagi axborotni to'plash, ro'yxatdan o'tkazish va umumlashtirishning tartibga



solingan tizimi tushuniladi. Byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda qo'llaniladigan aniq uslublar, asoslar, yo'l-yo'riqlar, qoidalar hamda usullar majmui esa byudjet siyosati deb yuritiladi. Mazkur siyosatning maqsadi - hisob siyosatini tanlash va o'zgartirishlar kiritish mezonlarini, shuningdek, byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobini va moliyaviy hisobotni tuzish, hisob siyosatidagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni ochib berish tartibini belgilab berishdan iborat. Ushbu siyosat byudjet tashkilotlarining moliyaviy hisobotlariga bo'lgan ishonchlilik darajasini va ma'lum bir davriylikdagi moliyaviy hisobotlarini, shuningdek, boshqa byudjet tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini o'zaro solishtirish darajasini oshirishga mo'ljallangan.

Hisob siyosati byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida mavjud o'zaro bir-birini istisno etuvchi bir nechta hisob yuritish usullaridan birini tanlash maqsadida tuziladi va u rahbar yoki uning o'rinbosarining buyrug'i yoki qarori bilan tasdiqlanadi va yildan-yilga izchil qo'llaniladi. Byudjet hisobini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hollarda, shuningdek, byudjet tashkiloti qayta tashkil etilganda hisob siyosatiga o'zgartirishlar kiritish mumkin¹.

Byudjet hisobi ma'lumotlarini solishtirishni ta'minlash maqsadida hisob siyosatiga o'zgartirish va qo'shimchalar moliya yili boshidan, agar byudjet tashkiloti qayta tashkil etilayotgan bo'lsa uni qayta tashkil etilgan sanadan kiritiladi. Byudjet tashkiloti yillik moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida kelgusi moliya yili uchun hisob siyosatidagi o'zgartirish va qo'shimchalar haqida ma'lumot beradi. Hisob

siyosati moliyaviy hisobotni barcha qo'llanilayotgan byudjet hisobi standartlari asosida shakllantirishini ta'minlashi kerak.

Moliyaviy hisobot o'ziga xos talablar bo'lmaganida: a) ahamiyatga ega bo'lishi ma'lumot undan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishi; b) ishonchli bo'lishi byudjet tashkilotlari faoliyatining barcha natijalari va moliyaviy holatini xolisona ko'rsatishi, hodisalar va operatsiyalarning iqtisodiy mohiyatini aks ettirishi; v) xolis (beg'araz) bo'lishi va majburiy bo'lmasligi; g) to'la (tugallangan) bo'lishi byudjet tashkiloti xo'jalik faoliyatining barcha faktlarini to'la aks ettirishi lozim.

Auditor korxonada hisob yuritish siyosatining to'g'ri tanlanganligi hamda unga to'g'ri rioya qil inayotganligiga ahamiyat bera turib, quyidagi larga alohida e'tiborni

qaratadi: a) dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirish talablari; b) asosiy vositalar va ular bo'yicha amortizatsiya hisoblash tartibi; c) tovar-moddiy boyliklarni baholash tartibi; d) nomoddiy aktivlarning baholanishi va eskirishi hisobi; e) bilvosita xarajatlarning xarajat obyektlari; f) mahsulot turlari bo'yicha taqsimlash variantlari; g) kelgusi davr xarajatlarning hisobi hamda ularning xarajatlarga taqsimlanish tartibi.

Yuqorida sanab o'tilgan qoidalar byudjet tashkilotlarining hisob siyosatida, albatta, belgilanishi va unga qat'iy rioya qilinishi lozim. Ularga rioya qilmaslik muayyan darajadagi xatolarning borligi ehtimolini kuch aytiradi hamda buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini noto'g'ri aks ettirishga olib keldi. Auditor korxonada buxgalteriya hisob holatini to'liq o'rganib chiqib, o'zi uchun kerakli xulosalarga keladi. Buxgalteriya hisobi t

¹ O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda gi «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni, № 158- II sonli



izimining samaradorligini baholash natijalari ma'lumotnomalar, tavsiyalar hamda loyihalalar ko'rinishida rasmiylashtiriladi².

Agarda korxonada ichki nazorat bo'lim taftish komissiyasi shaklida tashkil qilingan bo'lsa, u yerdagi nazorat ishlari unchalik ham yaxshi darajada emasligi bildiriladi.

Ma'lumki, taftish ko'rinishida tashkil qilingan ichki nazorat tuzilishi ancha eski usul hisoblanadi hamda bu usul korxonaning rahbariyatiga har jiyohatdan bog'liq bo'lganligi tufayli ko'pincha ma'lumotlar real vaziyatni ifoda etmasligi mumkin.

Ichki nazorat bo'limining ichki audit shaklida tuzilishi birmuncha ijobiydir. Chunki ichki audit boshqaruv apparatining maxsus bo'limi bo'lib, aynan mulkdorlarning manfaatlarini nuqtayi nazaridan korxonaning samaradorligini oshirish maqsadida tuziladi. Auditor ichki nazorat tizimi faoliyatini baholashda taftish komissiyasi yoki ichki audit bo'limi tomonidan rejalarning to'g'ri belgilanganligini hamda uni o'z vaqtida va to'g'ri bajarilayotganligini, tekshirish jarayonida qanday taomillar qo'llanilganligi hamda ulardan qaysilari samaraliroq ekanligini, ichki nazorat bo'limining ma'lumotlariga qay darajada ishonish mumkinligini aniqlaydi.

Auditor ichki nazorat bo'limi faoliyatini o'rganishda ularga yaratilgan barcha shartsharoitlar: alohida xona berilganligi, ichki nazorat bo'limi xodimlarining ish haqi bilan o'z vaqtida ta'minlanishi, xodimlarning malakasi oshirilayotganligi, buxgalteriya hisobida amalga oshirilayotgan muomalalarni tekshirishga h

uquqi borligini, ta'sischi umumiy yig'ilishining qarorlari, buyruqlari bilan ta nishayotganligi va boshqa sharoitlar mavjudligini tekshiradi³.

Agarda yuqorida sanab o'tilgan shartsharoitlar ichki nazorat tizimiga to'liq yaratib berilgan hamda ushbu bo'lim xodimlari o'z vazifalarini sidqidildan bajarayotgan bo'lsa, u holda auditor ichki nazorat tizimining faoliyatini ishonchli deb topadi hamda tekshirish muddati va unga ketadigan xarajatlarni qisqartiradi.

Auditor ichki nazorat tizimi faoliyatiga baho berishda muayyan usullarni qo'llaydi. Bu usullar auditorlik tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladi. Eng ko'p uchraydigan tekshirish usuli test hisoblanadi. Odatda, test usuli tanlab tekshirish asosida amalga oshiriladi. Mijoz korxonaning buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini ishonchli deb topish uchun uning faoliyati quyidagidek talablarga javob berishi lozim⁴.

Haqqoniylik- bu talab korxonada amalga oshirilgan muomalalar haqiqatda bo'lgan hamda ular o'z vaqtida hujjatlarda ramiylashtirilganligini anglatadi.

Aniqlik. Bu talab hujjatlardagi hamda buxgalteriya hisobi registrlaridagi summalarning aniq hisoblanganligini anglatadi. Tasniflash. Bu talab barcha muomalarning hisobvaraqalarda to'g'ri, mos ravishda aks ettirilganligini anglatadi. Hisob. Bu talab muomalarga mos keluvchi barcha hisob jarayoni tugallanganligini hamda u umumqabul qilingan sta

² O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni, № 158- II sonli

³ O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 26 avgustda qabul qilingan «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuni, № 664-11 sonli.

⁴ O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonuni – T 2000-yil 26-may.



ndartlar bilan mos kelishini ifodalaydi. Yuqoridagi a sanab o'tilgan talablarga javob berish auditorlarning mijoz korxonaning buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining to'g'ri baholashiga yordam beradi.

Hisob siyosati o'z ichiga quyidagilarni olishi lozim: budget tashkilotining buxgalteriya xizmati tashkiliy tuzilmasini; budget tashkilotida inventarizatsiya o'tkazishning tartibi va muddatlarini (inventarizatsiya qilish majburiy bo'lgan hollardan tashqari); budget tashkiloti tomonidan foydalaniladigan va unda sintetik va analitik schyotlar ro'yxati bo'lishi lozim bo'lgan ishchi schyotlar rejasini. Mazkur ma'lumot hisob siyosatiga ilova tarzida taqdim etiladi.

Shunday qilib, xo'jalik yurituvchi subyektning, shu jumladan, notijorat tashkilotining buxgalteriya siyosatini tuzishda, uning shakllanishiga mas'ul shaxs o'zining

professional xulosasi va notijorat faoliyatining asoslari haqidagi tasavvuriga asoslanishi kerak. "Buxgalter tomonidan tanlangan tashkilot buxgalteriya hisobi usullari umumiy qabul qilingan qoidalarga muvofiq bo'lishi va tashkilotlarning ustav va tadbirkorlik faoliyatini iloji boricha aniq aks ettirishi, ularning faoliyati to'g'risida to'liq, xolis va ishonchli ma'lumot berishi kerak⁵.

Yana shuni ta'kidlab o'tishim kerakki, hali ham yagona metodologiya mavjud emas, shuning uchun har bir xo'jalik yurituvchi subyekt mustaqil ravishda tashkilotning buxgalteriya siyosatiga kiritilgan qoidalarni ishlab chiqishi mumkin. Bundan tashqari, xo'jalik yurituvchi subyekt uchun buxgalteriya siyosati nima ekanligini aniq tushunib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 26 avgustdagi "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonuni, № 664-11 sonli.
2. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni, № 158- II sonli
3. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida" gi qonuni. -T.: 1995y.
4. O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonuni - T 2000-yil 26-may.

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni, № 158- II sonli